



MUVAQQAT XUKUMAT TOMONIDAN SHAHAR DUMALARINI TASHKIL ETISHGA OID NIZOMLARNING QABUL QILINISHI.

Boltaboyev Yodgorjon Toshpo'latovich

Namangan davlat universiteti Tarix

kafedrasi katta o'qituvchisi

Telefon raqami +998 94 270 47 24

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21544190>

Annotatsiya: Muvaqqat Hukumat tomonidan Nizom va qarorlarni qabul qili-nishi, shahar o'zini – o'zi boshqaruv organlari islohotlarini amalga oshirilishining boshlanishi, Shahar Dumasiga saylovlarni yangi tartib asosida o'tkazilishi, saylov-larda shahar aholisining ishtiroki, Shahar Dumasining faoliyati masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Fevral burjua demokratik inqilobi, Muvaqqat Hukumat, Shahar Dumasi, o'zini – o'zi boshqarish organlari, saylov, a'zo, Jamoat Xavfsizlik Komiteti, shahar boshqarmasi, xo'jalik va ma'muriy vazifalar, shahar ho'jaligini yuritish, demokratik tamoyillar.

Rossiyada yuz bergan 1917 - yil fevral burjua – demokratik inqilobi mamlakatdagi davlat boshqaruvi tizimida tub o'zgarishlarga olib keldi va bu o'zgarishlar shaharlarning o'zini o'zi boshqarish organlariga ham ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy beqarorlik sharoitida shahar o'zini – o'zi boshqarish organlari o'ta muhim xo'jalik va ma'muriy vazifalarni bajarishda davom etdilar. Masalan: shahar aholisini oziq-ovqat, yoqilg'i, elektr energiyasi bilan ta'minlash, ta'lim, sog'-liqni saqlash muassasalarining me'yorda ishlashini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash, shahar ho'jaligini yuritish va boshqa muhim vazifa-larni bajarganlar.

Mamlakatda yuz berayotgan katta o'zgarishlarga qaramay, shahar o'zini - o'zi boshqarish organlari barqarorlikning bir qismi bo'lib qolgan. Shu bois sof xo'jalik va ma'muriy vazifalar bilan bir qatorda shahar o'zini o'zi boshqarish organlari zimma-siga



siyosiy vazifalar ham yuklatilgan. Shahar o'zini o'zi boshqarish organlariga Ta'sis majlisiga saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha o'ta muhim davlat vazifasi topshirilgan.

Fevral burjua inqilobidan keyin tashkil etilgan Muvaqqat Xukumat mam-lakatdagi og'ir va murakkab vaziyatni barqarorlashtirish uchun keng qamrovli islo-hotlarni amalga oshirishga kirishgan. Islohotlar o'tkazilishi Muvaqqat Xukumatning mavqeyining mustahkamlashda va keyingi faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini yaxshi tushungan xukumat a'zolari darhol hamma sohalarda, shunigdek shahar o'zini - o'zi boshqarish organlarini qayta tashkil ishlarini boshlab yuborganlar. Muvaqqat Xukumat vakillari islohotlar o'tkazish orqali xalq ommasining qo'llab – quvvatlashlariga erishishni ham maqsad qilgan edilar. Muvaqqat Xukumat tomonidan qisqa muddat ichida mahalliy boshqaruv tizimida demokratik tamoyillar asosida islohotlar boshlab yuborilgan.

Shahar o'zini - o'zi boshqarish organlari a'zoliciga o'tkaziladigan saylovlarni tashkil etish va amalga oshirish uchun Muvaqqat Xukumat tomonidan 1917 - yilning 15 - aprel kuni “Shahar Dumalari a'zoliciga va shahar boshqarmalari uchastkalariga saylovlar o'tkazish to'g'risida” Nizomi qabul qilingan. Ushbu Nizom asosiy qism va 3 ta bo'limdan iborat bo'lgan¹. Nizomni birinchi bo'limining “Shahar Dumasi a'zoliciga saylovlar o'tkazishning muvaqqat tartib qoidalari” deb nomlangan 2 moddasida, Shahar Dumasi a'zolari 1919 - yilning 1 - yanvariga qadar bo'lgan mud-datga saylanishlari belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, shu bo'limning 3 moddasida saylovlarda ishtirok etish xuquqiga ega bo'lgan toifalar xaqida ma'lumotlar keltirilgan. Shahar xududida yashagan, shaharda uy - joyga ega bo'lgan, shahar xududida xizmatda bo'lgan yoki shahar xududida biror bir faoliyat turi bilan shug'ullanadigan fuqorolar, saylovchilar ro'yxatini tuzish vaqtida 20

¹ Временное правила о производстве выборов гласных городских дум. /URL: constitutions. ru. /archives/4984



yoshga to'lgan fuqorolar, barcha millat vakillari, barcha diniy e'tiqod vakillari, ikkala jinsdagi barcha Rossiya fuqorolari Shahar Dumasi a'zoliciga o'tkaziladigan saylovlarda ishtirok etish xuquqiga ega bo'lganlar.

Shahar Dumasiga o'tkaziladigan saylovlarda shaharlardagi davlat xokimiyati rahbarlari; ularning o'rinbosarlari va yordamchilari; politsiya qismlarida xizmat qilayotganlar; monaxlar; belgilangan tibbiy tartibda kar va aqlan nosog'lom deb xisoblangan fuqorolarni ishtirok etishlari ta'qiqlangan. Xarbiy xizmatni o'tayotgan fuqorolar esa nizomning 164 moddasiga asosan, saylash xuquqiga ega bo'lgan fuqorolar bilan birga saylovlarda ishtirok etish xuquqiga ega bo'lganlar.

Sud qarori asosida jazoga xukm qilingan fuqorolarni saylovda ishtirok etish va saylash xuquqlari cheklab qo'yilgan. Nizomda xar bir saylovchining faqat bitta ovoz berish xuquqi alohida belgilab qo'yilgan. Ushbu nizomning ikkinchi bo'limi "Shahar boshqarmasi uchastkalariga saylovlar o'tkazishning vaqtinchalik tartib qoidalariga" deb nomlangan. Ushbu bo'limning 3 moddasiga muvofiq, shahar boshqarmasi uchastkalariga duma uchastkalariga va boshqarma uchastkalaridan iborat bo'lgan.

Nizomga muvofiq xar bir Shahar Dumasi a'zolari "Shahar Dumasi a'zoliciga saylovlarni o'tkazishning vaqtinchalik tartib qoidalariga" asoslangan xolda, belgilab qo'yilgan a'zolar sonini hisobga olgan xolda shahar aholisi tomonidan saylangan. Nizom moddalarida Shahar Dumasi a'zolari soni eng kam 20 ta a'zodan, ko'pi bilan 50 ta a'zogacha bo'lishi belgilab qo'yilgan².

Nizomda Shahar Dumasi a'zolari soni xar bir saylov uchastkasi aholisi sonidan kelib chiqib belgilab qo'yilishi qayd etilgan. Nizomning 4 moddasiga binoan Duma a'zolari o'z tarkiblari orasidan belgilangan muddatga va tegishli imtiyozlar bilan Shahar Dumasi boshlig'ini saylaganlar. Shahar boshqarmasi Shahar Dumasi tomonidan belgilab qo'yilgan a'zolar tarkibidan iborat bo'lgan. Shahar boshqarmasi zim-masiga

² Местное самоуправления в России: отечественный исторический опыт. Сб. документов (1961 - 1917) /URL: emsu.ru/m/monf/libraru/MUN.



yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar shahar budjeti ko'rib chiqilib tasdiqlanganidan so'ng, Shahar Dumasi qarori asosida taqdim etilgan.

Shahar Dumalariga saylovlar o'tkazilishida umumiy ovoz berish tartibini joriy etilishi, tabaqaviy to'siqlarni olib tashlanishi Duma saylovlarida shahar fuqorolarini keng qatlamlarini ishtirok etishi imkoniyatini bergan. Buning natijasida Shahar Dumalarining faoliyati yanada kengaygan va ochiqroq ahamiyat kasb etgan. Nizomning III bo'limi "Shahar Dumasiga saylanadigan a'zolarining soni va jadvali" deb nomlangan. Bu bo'limda Rossiya imperiyasining alohida gubernyalaridagi shaharlar soni, xar bir Shahar Dumasiga saylanadigan a'zolar soni aniq belgilanib, alohida jadval asosida qayd etilgan.

Shunday qilib, yangi saylov tizimi avval mavjud bo'lgan saylov tizimidan tubdan farq qilgan. Yangi saylov tizmi qo'yidagi o'zgarishlarga olib kelgan:

1) ko'plab senzlar (mulk, yosh, turar joy va boshqalar) bekor qilinib, o'sha davr uchun eng kichik bo'lgan yosh senzi asosida umumiy saylov joriy qilingan;

2) 20 yoshga to'lgan xotin - qizlarga saylash xuquqi berilgan, shuningdek, ayollarga shahar boshqaruv ishlarida ishtirok etish xuquqi berilgan;

3) ishonch qog'ozi asosida ikkinchi ovoz berish xuquqi bekor qilinib, "bitta saylovchi - bitta ovoz" tamoyili joriy qilingan;

4) Shahar Dumasi a'zoliciga aniq nomzodlarni saylash tartibi bekor qilinib, partiyaviylik tamoyili asosida a'zolarini saylash tartibi joriy qilingan. Oqibatda saylovlarda a'zolikka nomzodning shaxsiy sifatlari emas, balki qaysi partiya a'zosi ekanligi muhim ahamiyat kasb etgan;

5) sharlar bilan ovoz berish tartibi o'rniga saylovchilar ro'yxati bo'yicha ovoz berish tartibi joriy etilgan;

6) Shahar Dumasi a'zolariga oylik maosh to'lash tartibi joriy etildi³.

³ Временное правила о производстве выборов гласных городских дум. /URL: constitutions. ru. /archives/4984



Muvaqqat Xukumatning saylov tizimi sohasidagi islohotlari natijasida, Rossiya fuqorolarning saylov xuquqlari bo'yicha sezilarli yuksalib, ko'plab G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan ilgarilab ketdi. Bu vaqtga kelib, umumiy saylov xuquqi Buyuk Britaniya, Fransiya, Shveysariya, Belgiya, Norvegiya, Ispaniya, Portugaliya, Bolgariya, AQSH va Avstriya mamlakatlaridagina joriy etilgan edi. Ammo, G'arbiy Yevropaning hamma mamlakatlarida ham ayollar saylovlarda ishtirok etish xuquqiga ega emas edilar.

G'arbiy Yevropa mamlakatlarida saylovchilar uchun yosh senzi xam turlicha bo'lgan. Masalan: Shveysariyada saylovda qatnashish xuquqi 20 yosh etib belgilangan bo'lsa, Daniyada 30 yosh etib belgilangan. Ko'plab mamlakatlarda 23 yoki 25 yoshdagi fuqorolar saylovda qatnashish xuquqiga ega bo'lganlar. 1917 - yil, 9 - iyunda Muvaqqat Xukumat tomonidan qabul qilingan qarorda Shahar Dumasi a'zolarining xuquqlari va majburiyatlari aniq belgilab qo'yilgan.

Shuningdek qarorda, yangi tashkil etiladigan shaharlarning o'zini - o'zi boshqarish organlarini vakolatlari aniq belgilanib, ularning faoliyat doiralari kengaytirilgan va yuqori turuvchi davlat boshqaruv organlarini ular ustidan nazorati cheklangan. Biroq, Shahar Dumalari faoliyatining qonuniyligi ustidan Muvaqqat Xukumat komissarlarini nazorati saqlab qolingan. Ammo, shaharlardagi ma'rifat-parvar ziyolilar mamlakatdagi siyosiy va iqtisodiy beqarorlik shaharlarning o'zini - o'zi boshqarish organlarini islohotlarini amalga oshirilishida qiyinchiliklar vujudga keltirishini yaxshi tushunar edilar.

1917 - yilning 9 - iyun kuni Muvaqqat Xukumat tomonidan yana bir muhim xuquqiy qaror qabul qilingan. Bu qaror "Amaldagi shaharlarning jamoatchilik boshqaruvi to'g'risidagi Nizomga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" deb nomlangan. Qarorning kirish qismida Muvaqqat Xukumat rahbariyati 1917-yildagi shaharlar o'zini - o'zi boshqaruvi sohasidagi islohotlar boshlanguniga qadar, qabul qilingan barcha



nizom va qarorlarni tan olinishini ta'kidlab, amaldagi nizom va qarorlarga kechiktirib bo'lmaydigan yangi moddalarni, o'zgarishishlarni kiritilishi zarurligini ta'kidlaganlar.

Birinchidan, amalda qo'llanilayotgan 1892-yilda qabul qilingan Shahar Nizomi va 1915-yilda nashr qilingan "Shaharlarning jamoatchilik boshqaruvi to'g'risidagi nizom" larni ayrim band va moddalarini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilingan. Jumladan: 4, 10, 12 - 18, 74, 78, 80, 83 - 88, 93, 119, 121, 141, 143, 145, 146, 149 - 154 moddalar bekor qilingan⁴.

Ikkinchidan, 1892 - yilda qabul qilingan va amalda qo'llanilayotgan Shahar Nizomining bir qator moddalariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qaror qabul qilingan. Jumladan: 1, 3, 5, 11, 21, 58, 59, 61, 69 - 71, 75, 79, 81, 82, 89 - 91, 95, 99, 101, 102, 103, 108 - 110, 115 - moddalari o'zgartirilgan. Amalda qo'llanilayotgan shahar boshqaruvi to'g'risidagi nizom, qaror va qo'llanmalarga kiritilgan bir qator yangiliklar, qo'shimchalar, ayrim modda, punkt va izohlarni bekor qilinishi, o'zgartirilishi va aniqlashtirilishi tufayli, "Shaharlarni jamoatchilik boshqaruvi to'g'risidagi nizom" takomillashtirilgan va tubdan tartibga solingan⁵.

Yuqorida keltirilgan xuquqiy me'yoriy aktlarni qabul qilinishi shaharlarning o'zini - o'zi boshqarish organlarini isloh qilishning asosiy maqsadlarini ko'rsatib bergan. Shuningdek, Muvaqqat Xukumat o'z faoliyati davomida bir qator xuquqiy me'yoriy aktlarni xam qabul qilgan. Mazkur qabul qilingan aktlar Butunrossiya xududidagi Shahar Dumalarining a'zolarining sonini ko'rsatib bergan, ayrim aholi yashaydigan punktlarni maqomini o'zgartirgan, shuningdek, Shahar Dumalarining moliyaviy xuquqlari va imtiyozlarini aniq belgilab bergan.

⁴ Временное правила о производстве выборов гласных городских дум. /URL: constitutions. ru. /archives/4984

⁵ Овчинников И.И. Местное самоуправления в системе народовластия. – М.: 1999. Стр.112.



1917 - yil aprel - iyun oylarida Muvaqqat Xukumat tomonidan qabul qilingan Nizom va qarorlar asosida Umumrossiya miqyosida o'tkazilgan shaharlarning o'zini - o'zi boshqarish organlari islohotlari mavjud ijtimoiy - siyosiy muammolarga, bir qator xuquqiy va texnikaviy kamchiliklarga qaramasdan, o'sha vaqtda o'tkazilgan demokratik islohotlardan biri edi. Islohotlarni xuquqiy asoslari avval mavjud bo'lgan qonunchilik tamoyillariga asoslangan bo'lsada, shaharlarning o'zini - o'zi boshqarish organlarini yangi asoslarda tashkil etilishi kelgusida shaharlardagi ijtimoiy jamoat-chilik munosabatlarini doimiy tartibga solish va namunaviy shahar boshqaruv tizimini tashkil etish uchun imkoniyat yaratgan.

Muvaqqat Hukumatni amalga oshirgan islohotlari jarayonida Rossiyada shahar xo'jaligini boshqarishning fevral inqilobidan oldingi tizimidan sezilarli darajada farq qiladigan shahar o'zini - o'zi boshqaruv organlarining yangi turi tashkil etilgan. Umuman olganda, XX asr boshlarida Rossiyada shahar o'zini - o'zi boshqaruv organlarini tashkil etish tajribasi bugungi kun uchun foydali ahamiyatga ega. Muvaqqat Hukumat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar shahar o'zini - o'zi boshqarish organlarining mustaqil faoliyati chegaralarini, ularning vakolatlari, tashkil etilishi tamoyillari va boshqa jihatlari butun boshqaruv tizimining uyg'un, barqaror tizimi bo'lishi, shahar xo'jaligini samarali rivojlantirish uchun chora tadbirlarni aniqlash qanchalik muhimligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda shaharlarning o'zini - o'zi boshqarish organlarini taraqqiyotini bosqichlarini va rivojlanish jarayonlarini tarixini o'rganish dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, keng qamrovli faol tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi. 1917 - yilda shahar boshqaruv sohasidagi amalga oshirilgan islohotlar uchun asos bo'lgan o'sha davrdagi xuquqiy qonunchilik normalarini o'rganish muhim ahamiyatga ega. 1917 - yilda amalga oshirilgan shaharlar boshqaruv sohasidagi islohotlar tufayli Shahar Dumasi a'zoliciga saylovlar yangi tartib qoidalar asosida o'tkazilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



1. Временное правила о производстве выборов гласных городских дум. /URL: constitutions. ru. /archives/4984
2. Евдошенко И.В. Трансформация местного управления и самоуправления в России в феврале – октября 1917 г. // Российский юридический журнал. 2005. № 3. С.143 - 151.
3. Местное самоуправления в России: отечественный исторический опыт. Сб. документов (1961 - 1917) /URL: emsu. ru./m/monf/ libraru/MUN.
4. Овчинников И.И. Местное самоуправления в системе народовластия. – М.: 1999. Стр.112.
5. Постановления Временного Правительства “О производстве выборов гласных городских дум и об участковых городских управлениях”. /URL: constitutions. ru. /archives/4984